

QORAQOLPOG’ISTON SHAROITIDA MARJUMAK (FAGAPRYUM) NING G’ADORUCHIT ESCELENTUM K-36 NS-7651 VA G’ADORUCHIT ESKELENTUM K-38 NC-7653 NAVLARINING O’SISHI, RIVOJLANISHIDAGI O’ZGACHALIKLARI VA NAMLIKKA BO’LGAN TALABINI O’RGANISH

*Ilmiy rahbar: Biologiya fanlari dotsenti: Matjanova X.Q.
Qoraqolpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistri:
Qurboniyozova S.*

Bugungi kunda insoniyatning oziq-ovqat va biologik faol moddalarga bo’lgan talabi o’zgarishi foydali mahsulotlarni istemol qilish tendensiyasining rivojlanishi o’simliklardan olinadigan sog’liq uchun zarur bo’lgan birikmalarga ehtiyojning tobora oshib borishiga olib kelmoqda. Xususan donli ekinlar shular jumlasidan Marjumak , tariq, sholi, bug’doy kabi o’simliklarning tarkibida uchrovchi moddalari inson salomatligi uchun benihoya katta ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Biologik klassifikatsiyasiga ko’ra Polygonagullilar oylasi, yopiq urugli bo’limi, ikki pallalilar sinfi, qoramug’ullilar turkumi ga kiradi.

Marjumak donli ekinlar guruhiga kiradi. Hozirgi kunda fanga ma’lum bo’lgan 5 ta turi aniqlangan. Marjumakning bo’yi 80- 150 sm gacha borishi aniqlangan. Bir yillik turlar ichida faqatgina Tatar marjumagi (Fagopyrum tataricum) turi begona o’t tarzida uchraydi. Madaniy holatdagilari esa dehqonchilikda olimlarning bergan aniq faktlariga asoslanib miloddan avvalgi 3-3,5 ming yildan ortiq vaqt davomida ekib o’stirilgan o’simlik hisoblanadi. Marjumakning tashqi tuzilishiga keladigan bo’lsak poyasi shoxlangan qirrali, nashtarsimon bargli poya ranggi qizg’ish yashil yoki och yashil tusda bo’ladi. Gullari oq, pushti, qizil, ba’zi holatlarda to’q pushti yoki to’q qizg’ish ko’rinishda bo’ladi. Bir tup marjumak o’simligining gullash davri turlicha bo’ladi ya’ni to’pgullardagi uchki qismda joylashgan gullar paski qismda joylashgan gullarga nisbatan ertaroq ochiladi.

1-jadval

Rivojlanish fazalaridagi marjumakning suvga bo’lgan talabi

№	Rivojlanish fazalarida suvga bolgan talabi				
	Navlar	Unib chiqish	Shonalash	Gullash	Pishish
1	G’ADORUCHIT ESCELENTUM K-36 NS 7651	Urug’vazniga nisbattan 20-30%	Urug’vazniga nisbattan 30%	Doimiy suv talab qiladi ariqdan jildiratib suv oqizib qo’yish	Urug’vazniga nisbattan 10%

2	G'ADORUCHIT ESCELENTUM K-38 NC-7653	Urug'vazniga nisbattan 20- 30%	Urug' vazniga nisbattan 30%	Doimiy suv talab qiladi ariqdan jildiratib suv oqizib qo'yish	Urug' vazniga nisbattan 10%
---	---	--------------------------------------	--------------------------------------	--	--------------------------------------

Gullari 5 toj bargchali tojbarglari bir biriga qo'shilmagan holda bo'ladi. Urug'chi ustunchalari changchilarga nisbatan yuqoriroqda joylashgan bo'ladi. Gullarining to'p bo'lib gullashi va egilib turishiga qarab qalqonsimon yirik gullar qatoriga kiradi. Mevasi 3 qirrali to'q qo'ng'ir, qora yoki kulrang tusda bo'lishi kuatiladi. Poyasi bo'g'imlarga bo'lingan bo'lib bo'g'im oraliqlari g'ovak silindr shaklida bosh boladi. Tanasi qizg'ish yoki yashil tusda boladi. Ildiz sistemasi esa o'q ildiz bo'ladi. Bark plastinkasi esa butun bo'laklargabo'linmagan bo'ladi. Bitta barg bandida bitta barg plasinkasi joylashganini ko'rish mumkun. Gullar tarkibiga ko'ra nihoyatda shiraga boy bo'lganligi uchun ulardan asal ifori taralib turadi. Shu bilan bir qatorda 1 gektar maydonga ekilgan marjumakdan mehnatkash asal arilar o'smlik xosildorligini oshirish bilan bir qatorda 50-60 kg gacha shifobahsh asal hosilini yig'ishtiradi. Marjumak bahorda va yozning 2 chi yarmida ekib ostiriladi.

Qaroqalpog'iston sharoitida bahorda aprel oyida ekilganda 15 aprel havo harorati 20-25 C paytida G'ADORUCHIT ESCELENTUM K-36 NS 7651 G'ADORUCHIT ESCELENTUM K-38 NC-7653navlari unib chiqishini aval labarato'rya sharoitida kuzatdim 100% bo'lgandi ammo erga ko'karuvchanlik tuproq sharoitida ekilganda 80-85% bo'ldi ko'karuvchanlik yaxshi bo'lishini kuzattim. Marjumakni keng qatorlap 4 takrorlanishda ekib kuzatdim namga talabchan o'simlik bolgani uchun har bir takrorlanishda namlik darajasini har xil qilib kuzatdim. Nam kam bo'lganda ekishdan oldin gektariga 600-700m3, o'suv davrida 500-600 meyorida 2 3 martasug'oriladi. Marjumak 1s don va shunga mofiq poya burglar massasini hosil qilish uchun 3 4 kg N,1,82kg P, va 3,31 kg K o'zlashtiradi.

Marjumak yer yuzasiga ikki urug'palla bo'lib chiqdi va shu barglar qo'ltigidan keyingi kurtakalar chiqa boshladi.

Namlik va issiqlik yetarli bo'lganda 28-30 kunlarida gulga qaray boshladi gullari oq to'pgul bolip gulladi,vegetatsiya davri 70-80 kun bo'lishini kuzatildi.

Xudi shu usulda namlik kam bo'lganda yetarlicha sug'orilmagan sharoitda gullash davriga kelib maysalar nobud bolganini tajribamizda ko'rdik.

Tajribamizdan malum bo'ldiki marjumak ekini suvga talabchan namlikni yaxshi ko'radikan ekin ekanligini aniqladim.

Xulosa qilib aytganda marjumak boshqa o'simliklar singari namlikka talabchanligi ammo issiqlikni uncha xushlamasligi bilan boshqa o'simliklardan

farqlanadi. Namlik va ozuqa o'z vaqtida yetarlicha berilsa o'simlikdan yanada yuqoriroq va sifatli hosil olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.N.Atabaeva, J.B. Xudoyqulov O'simlikshunoslik Toshkent (2018 yil)
2. X.Atabaeva, O.Qodirxo'jaev O'simlikshunoslik T.Yangi asr avlodi.(2006-yil)
3. Zakirov, D. Madaminova. 2020-yil. Biyalo'giya va ekolo'giya bilimini rivojlantirish.